

# Мугаллим ҳәм ўзликсиз билимлендириу



ISSN 2181-7138

№ 4 2021 жыл

## Илимий-методикалық журнал

**Редактор:**

**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Мақсет АЙЫМБЕТОВ  
Нағмет АЙЫМБЕТОВ  
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ  
Дилшодхужа АЙТБАЕВ  
Өсербай ӘЛЕУОВ  
Асқар ДЖУМАШЕВ  
Кеңесбай ДАУЛЕТЯРОВ  
Гүлнара ЖУМАШЕВА  
Батырбек КАИПБЕРГЕНОВ  
Амангелди КАМАЛОВ  
Сарсен КАЗАХБАЕВ  
Гулмира КАРЛЫБАЕВА  
Сабит НУРЖАНОВ  
Уролбой МИРСАНОВ  
Арзы ПАЗЫЛОВ  
Зухра СЕЙТОВА  
Айдын СУЛТАНОВА  
Тажибай УТЕБАЕВ  
Ризамат ШОДИЕВ  
Ойбахор ШАМИЕВА  
Бекзод ХОДЖАЕВ  
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ  
Гулрухсор ЭРГАШЕВА

**Шөлкемлестиріушілер:**

**Қарақалпақстан Республикасы  
Халық билимлендириу  
Министршиги, ӨЗПИИИ  
Қарақалпақстан филиалы**

**Өзбекстан Республикасы  
Министрлер Кабинети  
жанындағы Жоқарғы  
Аттестация Комиссиясы  
Президиумының 25.10.2007  
жыл (№138) қарары менен  
дизимге алынды**

**Қарақалпақстан Баспа сөз хәм  
хабар агентлиги тәрәпинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге  
алынды №01-044-санлы гууалык  
берилген.**

**Мәнзил: Нөкис қаласы,  
Ерназар Алакөз көшеси №54  
Тел.: 224-23-00  
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,  
mugallim-pednauk@umail.uz  
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz**

*Журналға келген мақалаларға жууан қайтарылмайды, журналда әсрияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм ўзликсиз билимлендириу» журналынан алынды, деп көрсетилиуи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген мағлұматларға автор жууанкер.*

# MAZMUNY

## ТИЛ ХЭМ ӨДЕБИЯТ

<b>Ergashova M., Ergashev Sh.</b> Verbal assotsiatsiyalarning matn hosil qilishdagi oʻrni .....	4
<b>Suyunov M.</b> Adabiyot darslarida integratsiyadan foydalanish yoʻllari .....	8

## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

<b>Исроилова Р.</b> Танкидий фикрлаш лойиҳалаш жараёнида ўқувчиларни фаоллаштириш мезони сифатида .....	13
<b>Амонов А.</b> Малака ошириш тизимида чет эл ёндашувларининг хусусиятлари .....	19
<b>Қосимов Ш.</b> Бўлажак касбий таълим ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш .....	25
<b>Rasulov A.N., Vafoeva G.B.</b> Oʻzbekistonni xalqaro reytinglardagi koʻrsatkichlarini koʻtarishning tarixiy rivojlanishi .....	35
<b>Toshov M.J., Xurramov K.M.</b> Yangi Oʻzbekiston sharoitida uzluksiz taʼlim muammolari va pedagogika fani taraqqiyoti istiqbollari xususida .....	38
<b>Abdullayeva G.S.</b> Eshitishda nuqsoni bor talabalarni inklyuziv taʼlim sharoitida oʻqitishning oʻziga xos xususiyatlari .....	42
<b>Матназарова К.О.</b> Талабаларнинг касбий фаоллигини ривожлантиришда ишбилармонлик ўйинларидан фойдаланиш .....	46
<b>Атажанова Р.Р.</b> Развитие способности креативного мышления младших школьников на уроках изобразительного искусства .....	49
<b>Эгамбердиева Ш. Д., Эгамбердиева Ф.О.</b> Коммуникативный аспект рекламного дискурса .....	52

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХЭМ РУЎХИЙЛИК ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

<b>Халмухамедова М.А.</b> Нақшбандия тариқати воситасида касбий компетентлигини такомиллаштиришни амалиётда таъбиқ этиш .....	57
---	----

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

<b>Qodirova Sh.T.</b> Baʼzi irratsional funksiyalarni integrallash usullari .....	61
<b>Joʻlanov D.Q., Namozov J.S.</b> Matematikani oʻqitishda mustaqil ishlarni tashkil etishning didaktik yoʻnalishlari .....	64

## БАСЛАЎИШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМЧИ ТЭРБИЯ

<b>Ab salamova G.Sh.</b> “Mishel de Montening “Tajribalar” asarida “oila tarbiyasi fazilatlarini” tushunchasining oʻzbek tilida ifodalanishi” .....	71
<b>Jurayeva G. T., Najimova A. I.</b> Boshlangʻich sinf oʻqituvchisini tayyorlashda matematikani oʻqitish uchun vazifaviy yondashuv .....	76
<b>Бегимкулов О.Ж.</b> Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida harakatli oʻyinlarni bolalar yoshiga mos holda tanlash va oʻtkazish .....	82
<b>Турниязова М.У.</b> Формирование познавательного интереса младших школьников на уроках русского языка .....	85

## ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

<b>Ниязов А.Т., Жуманиязов Қ.Т.</b> Спорт гүресинде оқытыу ұсылының тийкарлары .....	89
<b>Utegenov J.J., Turdymuratov J.A.</b> Student-jaslardm ruxiy ham dene madeniyatin rawaylandiriv meseleleri .....	94
<b>Турдымуратов Ж.А.</b> Жедил атлетика шыныгыуларында оқытыудың инновациялык усылларынан пайдаланыуы .....	98
<b>Ro'zmetov A.T.</b> Inson organizmini o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar .....	105
<b>Мирзаев А.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalar hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiyasini takomillastirish muammolari .....	108
<b>Шарипова Қ.А.</b> Булажак жисмоний тарбия укутувчиларини спорт мураббий асосида касбий фаолиятга тайёрлаш технологиялари .....	111
<b>Исаков Р.Ш.</b> Ёш спортчининг мусобақа олди психологик тайёрлаш жараёнлари .....	116
<b>Ахмедов Ғ.</b> Таълим -тарбия жараёнинида индивидуал таълимнинг педагогик асослари .....	117
<b>Ташпулатов Б.Б.</b> Укитипни модулли ташкил этишининг афзалликлари ва унда тренажёрларнинг ўрни .....	120
<b>Рўзметов Р.Т., Дехканов Ж.</b> Узунликка сакровчиларни машгулот жараёнида тезкорлик-куч сифатларини ривожлантириш услубияти .....	125
<b>Пўлатов Л.</b> Ёш таэквондочиларнинг хужум ва химоя ҳаракатларини такомиллаштириш .....	130
<b>Дехқонов Ж.М.</b> Mashg'ulot jarayonida o'quvchilarni jismoniy tarbiya sifatleri hamda estetik xususiyatlarini rivojlantirishda harakatli o'ymlarni o'rni va amaliy ahamiyati .....	134
<b>Болтаев А., Қўчкаров Б.</b> Спорт малакаларига ўргатиш ва уларни такомиллаштиришда тактик-стратегик маълумотлардан фойдаланиш устуворлиги (волейбол мисолида) .....	137
<b>Котлов Е.В.</b> Теоретические основы профессиональной педагогической компетентности будущих преподавателей физической культуры .....	142
<b>Котлов Е.В.</b> Психологические условия формирования специальной готовности спортсмена .....	144
<b>Ахмедов Г.</b> Значение информационно-коммуникативных технологийна уроках физической культуры .....	148
<b>Бегимкулов О.Ж.</b> Значение общеразвивающих упражнений .....	151
<b>Исаков Ш.М.</b> Непрерывное совершенствование занятий по физической культуре в образовательных заведениях Узбекистана .....	156

xalqaro reyting va indekslar uchun kerakli ma'lumotlar davlat idoralari tomonidan muntazam yangilanib boriladi. Misol uchun, hukumat portali doirasida "Ochiq ma'lumotlar portali" ishga tushirilgan. Mazkur portal Davlat statistika qo'mitasining davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlar bazasi yuritilishi va yangilanishi, shuningdek, tegishli axborotlarning o'z vaqtida aks ettirilishini muvofiqlashtirib kelmoqda. Umuman olganda, xalqaro reyting va indekslarni yurituvchi tashkilotlar tadbirkorlar va aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga, nodavlat notijorat tashkilotlar ma'lumotlariga hamda milliy va xorijiy ekspertlar xulosalariga tayanadi. Bu esa, o'z navbatida, respublika miqyosida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohadagi islohotlar va ularning natijalaridan mahalliy aholi va tadbirkorlar qay darajada xabardor ekanini ko'rsatib beradi [2].

Xalqaro reyting agentliklari indekslarni hisoblab chiqishda yoki reytinglarni tuzishda, asosan, mamlakatning turli statistik ko'rsatkichlariga tayanadi. Tan olish lozim, pandemiya sababli statistik ko'rsatkichlarning yaxshi tomonga o'zgarishiga nisbatan ularning yomonlashish ehtimoli yuqoriroq. Shu sababli keyingi yillarda xalqaro reyting va indekslardagi o'mimizning joriy holatida saqlab qolinishi yoki pastlashishi ehtimolini nazardan qochirib bo'lmaydi. Biroq unutmazlik kerakki, pandemiya bitta yoki bir nechta davlatda emas, balki butun dunyo mamlakatlariga bevosita salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Shu bois, balki boshqa davlatlarning ham reytinglardagi o'rni pastlashishi sabab mamlakatimizning o'rni tom ma'noda ko'tarilishi yoki joriy holatda saqlanib qolishi ham ehtimoldan xoli emas.

#### Adabiyotlar:

1. Dilshod Xolmurodov. Xalqaro reyting va indekslarda O'zbekistonning o'rni. Xalq so'zi gazetasi.
2. Xalqaro reyting va indekslar. <https://yuz.uz/uz/news/xalqaro-reyting-va-indekslar?view=epidemiologik-vaziyatni-yaxshilash-barcha-imkoniyatlar-va-kuchlarni-safarbar-qilishni-talab-etmoqda>

#### РЕЗЮМЕ

Maqolada xalqaro reyting va indekslar har bir mamlakatning rivojlanish jarayonini o'zida namoyon etib, aholining turmush darajasi, inson huquqlari muhofazasi, tadbirkorlik faoliyati va xorijiy investorlar uchun qulay muhit, barqaror iqtisodiy o'sish va Taqobatbardoshlik kabi muhim jihatlarning samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilib, amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В статье показано, что международные рейтинги и индексы отражают процесс развития каждой страны с особым акцентом на повышение эффективности таких важных аспектов, как уровень жизни, права человека, предпринимательство и благоприятная среда для иностранных инвесторов, устойчивый экономический рост и конкурентоспособность, практические предложения и рекомендации.

#### SUMMARY

The article reflects the international rankings and indices of each country's development process, focusing on the effectiveness of important aspects such as living standards, human rights, entrepreneurship and a favorable environment for foreign investors, sustainable economic growth and competitiveness. Attention was paid to practical suggestions and recommendations.

## YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA UZLUKSIZ TA'LIM MUAMMOLARI VA PEDAGOGIKA FANI TARAQQIYOTI ISTIQBOLLARI XUSUSIDA

*Toshov M.J.*

*CHDPI "Pedagogika va menejment" kafedrasi dotsenti v.b., p.f.n.*

*Xurramov K.M.*

*CHDPI "Pedagogika va menejment" kafedrasi o'qituvchisi*

**Таянч соʻزلар:** uzluksiz taʼlim, taʼlim-tarbiya, taʼlimiy qadriyatlar, zamonaviy taʼlim tushunchasi, konseptual talablar, globallashuv sharoiti, taʼlimga qoʻyilgan zamonaviy talablar, pedagogika fani taraqqiyoti.

**Ключевые слова:** наука и образование, образование, образовательные ценности, концепция современного образования, концептуальные требования, в условиях глобализации, современные требования к образованию.

**Key words:** science and education, education, educational values, the concept of modern education, conceptual requirements, in the context of globalization, modern requirements for education.

Maʼlumki, fanlarning rivojlanishi barcha sohada bilimlarning takomillashuviga olib keladi. Fan – muayyan soha ilmi aniqlagan bilimlarni jamlab, ularni saralab, maʼlum bir tizimga soladigan inson faoliyatining bir eng muhim turidir. Ilm bilan fan oʻzaro uzviy bogʻliq boʻlgani uchun “ilm-fan” deb yuritilishi ham bejiz emas. Ilm-fanlar oʻrganish obʻektiga qarab quyidagi guruhlariga ajratiladi: tabiiy fanlar – tabiat sirlari majmuini; ijtimoiy fanlar – jamiyat hayotidagi ilmlar majmuini; iqtisodiy fanlar – jamiyatning xoʻjalik yuritish sirlari majmuini; siyosiy fanlar – boshqaruv guruhlarining ularga tobe xalq bilan kechadigan munosabatlarning qonuniyatlar majmuini; texnik fanlar – inson aql-zakovati bilan bunyod etgan mashina va moslamalardagi bilimlar majmuini; gumanitar fanlar – insonning ruhiy holatida kechadigan qonuniy hodisalar majmuini tashkil qiladi.

Fanlardagi kashfiyotlar, ilmiy tadqiqot ishlari mavjud metodologik va metodik asoslarga koʻra amalga oshiriladi.

Metodologik asos - deganda, har qanday faoliyatni amalga oshirishdan oldin, jamiyat oldiga qoʻyilgan umumiy maqsad va dialektika qonunlarini kishi tasavvuriga keltirib turib amalga oshirish koʻzda tutiladi.

Metodika esa – maqsadga yoʻnaltirilgan harakat natijasida maqsadga erishish uchun bir qator usul va uslublardan foydalaniladi. Shu usul va uslublardan foydalanish yoʻriqnomasini fanda metodika, deb atash qabul qilingan.

Oʻquv fani – fan saralab jamlagan son-sanoqsiz bilimlar ichidan, muayyan kasb egasiga kerak boʻladigan va bolalarning yoshi va bilimlarning qabul qilish va boshqa omillarni hisobga olgan holda, uzluksiz taʼlim-tarbiya jarayonining muayyan bosqichida yoshlarga berilishi mumkin, deb hisoblangan bilimlarni tanlab olib tartibga keltirilgan holati oʻquv fani deyiladi.

Har qanday jamiyatning taraqqiyoti fandagi yutuqlarni amaliyotga tadbiiq etishga bogʻliqdir. Shu jumladan, pedagogika sohasi rivoji ham. Maktab taʼlimini rivojlantirish zamon ehtiyojiga aylangan bir davrda boʻlajak oʻqituvchilarni tayyorlash masalasi oʻta dolzarbligicha qolmoqda. Yoshlarni taʼlim berib tarbiyalash masalasi bizning jamiyatimizning ham eng dolzarb, kechiktirib boʻlmaydigan maqsadi hisoblanadi. Yuksak ilmiy, axloqiy tarbiyali insonlarga jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi.

Ayni paytda zamonaviy maktablar oldiga jamiyat tomonidan qoʻyilgan buyuk vazifa ham ana shundan kelib chiqadi. Chunki hamisha ham yoshlar har qanday jamiyatning kelajak avlodlaridir. Shu nuqtai nazardan Vatanimizning qay darajada taraqqiy etishi bugun maktab va oliy taʼlim muassasalari partalarida oʻtirgan yoshlarning bilim, koʻnikma va malakalari va tarbiyalanganlik darajalariga bogʻliq boʻladi.

Tarbiya – har bir shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, maʼnaviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashini taʼminlash uchun zarur boʻlgan aqliy-jismoniy, badiiy-estetik va axloqiy-maʼnaviy xususiyatlarni tarkib toptirishga yoʻnaltirilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Shu bilan birga tarbiyainsonning insoniyligi, millatning millatligi davomiyligini ta'minlaydigan azaliy qadriyatdir. Har qanday jamiyatda ham alohida odam ham, butun insoniyat ham tarbiyasiz mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan milliy qadriyatlar avloddan avlodga tarbiya vositalari tufayligina o'tadi. "Tarbiya" atamasi ilmiy adabiyotlarda tor va keng ma'nolarda qo'llaniladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, siyosiy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, itilishlar majmuini anglatadi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya ta'lim olish va ma'rifatlilikni ham qamrab oladi. Zero, tarbiya ta'limga nisbatan kengroq bo'lgan tushunchadir.

Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan maxsus faoliyatni anglatadi. Bunda tarbiyaning oila boshliqlari va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ta'lim olish va ma'rifatga erishish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holda mavjud bo'lishi hisobga olinishi lozim. Chunki ta'lim olish va ma'rifatga erishish jarayonida shaxsning bilimi ortishi ko'pincha bu shaxsda ezgu axloqiy-ma'naviy sifatlar qaror topishini tezlashtiradi. Shuning uchun ham tarbiya – har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan shug'ullanmagan mamlakat turg'unlikka yuz tutadi va oqibatda inqirozga mahkum bo'ladi. Negaki, har qanday jamiyatning o'sib, rivojlanishi uchun moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun har bir avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlardan yaxshiroq darajaga ko'tara bilishi kerak. Yosh avlodga ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlar shakllanishi uchun jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy institutlar tizimiga ega bo'lishi taqazo etiladi.

Tarbiya tushunchasi millat tarixi va jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo'lib, har xil izohlanadi. Sho'ro zamonida tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashilgan. Shuning uchun ham turli sinf va ijtimoiy tabaqalarning tarbiyasi o'zgacha bo'ladi hamda bir-biriga qarama-qarshi turadi, degan qarash hukmronlik qilgan. Holbuki, dunyo tarbiyashunosligi va o'zbek xalq pedagogikasi tajribasi tarbiyaning sinfiy ko'rinishga ega emasligini isbot etadi. Chindan ham ezigulik va yovuzlikning mohiyati har qanday ijtimoiy sinf vakili uchun ham bir xildadir.

Kommunistik mafkura tarbiyada ijtimoiy muassasalarning o'rniga ortiqcha baho berib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida irsiy va biologik xususiyatlarning o'rnini borligini mutlaqo inkor qilgan. Hukmron kommunistik mafkura tarbiya vositasida har qanday odamni ijtimoiy qiyofaga solish mumkin degan qarashga tayangani uchun ham uning shaxs shakllantirishdagi o'rniga oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsidagi irsiy va biologik xususiyatlarning hisobga olinmasligi soxta tarbiyaviy tadbirlarga mahliyo bo'lishday xatolikka olib keldi. Buning natijasida tarbiya makon-manzilsiz bo'lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istagan ijtimoiy qolipga solinishi mumkin bo'lgan qiyofasiz ob'ekt sifatida qarash qaror topdi. Bu hol sobiq sho'ro tarbiyasining samarasizligiga olib keldi. Chunki tarbiyaning asosiy ob'ekti bo'lmish shaxs tabiatining milliy o'ziga xosligi unutilgan edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin, tarbiyani izohlashda g'ayriilmiy sinfiy-partiyaviy yondashuvdan butunlay voz kechilib, unga bog'liq jarayonlarda yangi sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan yondashuv qaror topdi. Endilikda tarbiyaning irsiy-biologik jihatlari va milliyligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun xalq pedagogikasi

boyliklari, mutafakkirlarning tarbiyaviy qarashlari tizimi sinchkovlik bilan o'rganilmoqda. Millatimizning ko'p asrlik tarbiya sohasidagi boy tajribasi mustaqil O'zbekistonning kelajagi bo'lgan yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda dasturilamal bo'lib asqotmoqda.

Hayotiy tajribalar va kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalarini ilmiy-metodik asosda zamonga mos va xos boshqarishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- Uzluksiz ta'lim bosqichlari orasida uzviylikni to'la ta'minlash;
- Rahbar kadrlarning kasbiy, ilmiy-metodik tayyorgarligi ta'lim mazmuni va uning metodik ta'minotini rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalaridan kelib chiqib, yanada takomillashtirish;
- Aksariyat maktab rahbarlarida ijodiy va ijtimoiy faollik, g'oyaviy-siyosiy yetuklikning talab darajasini ko'tarish;
- Umumiy o'rta ta'lim maktab rahbarlarini tayyorlash tizimining ilmiy-nazariy hamda metodik jihatdan yetarlicha asoslash, bu jarayonda ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalardan foydalanish uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikma va malaka va kompetensiyalarni egallashga e'tiborni qaratish muhimdir.

Uzluksiz ta'lim muassasalarida ta'lim maqsadlarini aniqlash ma'lum ichki va tashqi sharoitlar bilan belgilanadi. Bunda maktablardagi ijtimoiy pedagogik muhit va DTS lari alohida ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda real ta'lim jarayonini aniqlovchi tayanch o'quv reja va dasturlar muhim o'rin tutadi.

Bular tashqi talablar bo'lib, u maktabning aniq va mavjud real imkoniyatlari bilan mos kelishi ta'lim muassasasi vazifalarini belgilash uchun me'yoriy asos bo'lib xizmat qiladi. Ammo bu vazifalar ta'lim jarayonining aniq maqsadini oydinlashtirmaydi. Maktabning umumiy vazifasi quyidagi savollarga beriladigan javoblarda o'z aksini topadi:

- Maktab o'z faoliyatini aynan kimlarga va qanday ta'lim yo'nalishlariga yo'naltiradi? Vazifani belgilash bu – ijtimoiy buyurtmaga ko'r-ko'rona ergashish yoki maktabning ichki ishi bo'lib qolmay, balki tashqi va ichki ehtiyoj va imkoniyatlar teng kelishi bilan belgilanadi.
- Maktab qanday darajadagi ta'lim xizmatlarini ko'rsata oladi?
- Maktab uchun qanday ta'lim vazifalari ustivor?
- Ta'lim xizmatlaridantashqari, maktab o'quvchilariga yana qo'shimcha nimalarni taklif qilishi mumkin?
- Maktab o'z xodimlari uchun qanday imkoniyat va imtiyozlarni taklif eta oladi?
- Maktab keng ijtimoiy doiraga nisbatan hududiy ta'lim tizimi uchun qanday tayyorlanayapti?

Demak, ta'lim muassasasi hisoblangan maktab ana shu savollarga to'la ijobiy javob bera oladigan darajada bo'lsa, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha oladi, deb aytish mumkin.

Buning uchun maktabni boshqaruvchi rahbarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi – bu ularning ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik tayyorgarligi, g'oyaviy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy yetukligidaniborat.

Amaldagi me'yoriy hujjatlarda belgilangan ta'lim sohasidagi davlat siyosatining tamoyillaridan kelib chiqqan holda ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va uni takomillashtirish hamda rahbarlik faoliyatini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilish mumkinki, uzluksiz ta'lim tizimi muassasalari rahbarlari va pedagog xodimlari zamonaviy ta'lim talablarini to'g'ri anglashlari, jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch – ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan hozirgi yoshlar ekanligi, ulardan yuksak

salohiyatli raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash muammosini ijobiy hal etish nuqtai nazaridan yondashish zarur va muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov Ta'lim sifatini boshqarish T.: "Turon-Iqbol", 2006. 590 b.
2. J.G'.Yo'ldoshev "Innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga uzluksiz ravishda tatbiq etish zamon talabi" T.: "Uzluksiz ta'lim" j. 2011. № 6, 11-15 b.
3. R.Musurmonov "Ta'lim sifatini boshqarishga ijobiy ta'sir etuvchi omillar haqida", Kirgiziya Vestnik Batkentskogo gos. Univer. J. 2008, № 5, B. 76-78
4. R.Musurmonov "Sog'lom avlod tarbiyasi – jamiyat taraqqiyotining asosi" O'zMU xabarlari jur. T.: 2011 y. № 1, B. 169-173.

РЕЗЮМЕ

Maqolada fan va ta'limning asosiy tushunchalariga, ta'lim-tarbiyaning rivojlanishida fanning ahamiyatiga, ta'limiy qadriyatlariga, zamonaviy ta'lim tushunchasi va unga qo'yiladigan konseptual talablar xususida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются основные концепции науки и образования, роль науки в развитии образования, образовательные ценности, концепция современного образования и концептуальные требования к нему, современные требования к образованию в условиях глобализации и рекомендации.

SUMMARY

The article examines the basic concepts of science and education, the role of science in the development of education, educational values, the concept of modern education and conceptual requirements for it, modern requirements for education in the context of globalization and recommendations.

## ESHITISHDA NUQSONI BOR TALABALARNI INKLYUZIVTA'LIM SHAROITIDA O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Abdullayeva G.S.*

*TVCHPI "Defektologiya" kafedrasi dotsenti v.b.*

**Tayanch so'zlar:** eshitishda nuqsoni bor talabalar, inklyuziv ta'lim, maxsus fanlar, maxsus adabiyotlar, fundamental bilimlar.

**Ключевые слова:** студенты с нарушением слуха, инклюзивное образование, специальные предметы, специальная литература, фундаментальные знания.

**Key words:** hearing impaired students, inclusive education, special subjects, special literature, fundamental knowledge.

Eshitish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan shaxslarni o'qitish tizimini takomillashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi maxsus fanlar sifatini oshirishi, ko'plab kasblar va zamonaviy jamiyat a'zosi sifatida umumiy madaniyatining o'sishi ham.

Kar va zaif eshituvchi talabalar orasida maxsus kontingenti hisoblanadi va ularga ta'lim berish jarayonida an'anaviy ta'lim muassasalari o'qituvchilari odatda muayyan qiyinchiliklarga duch keladi. Ushbu talabalar uchuno'quv materiallarini taqdim etishda ularga ko'proq vizualizatsiya, ko'rgazmali tamoyilga e'tibor berish kerak: korreksion maxsus dasturlarnimasalan, tushunchalar lug'ati.

Ta'lim sifatini yaxshilash muammosi yangi faol o'qitish usullari topish zarurligini ta'kidlaydi. A. P. Gozova [1], A. G. Zikeeva asarlarini tahlil qilish natijasida, V. B. Suxovoy va boshqalar, shuningdek, xususiy pedagogik tajriba asosida eshitishda nuqsoni bor shaxslar ta'limi maxsus fanlar o'qitish samaradorligini oshirishning quyidagi usullarini ajratib beradi umumiy va maxsus pedagogika tamoyillarni birlashtirgan holda:

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагоғикалык  
илим-изертлеў институтының Ж. Орынбаев атындағы  
Қарақалпақстан филиалы

**«МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ  
БИЛИМЛЕНДИРИЎ» № 4**  
Нөкис — 2021

Басып шығыўға жуўапкер:

*А. Тилегенов*

Баспаға таярлаған:

*А. Тилегенов, Н. Абдукаримов*

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 4.07.2021. Форматы 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>  
«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.  
Шәртли б.т. Нашр. т. Нусқасы 2000. Буйыртпа №

«NISO POLIGRAF» ШК босмахонасида босилди.  
Тошкент ш., Ҳ. Бойқаро, 51